

# YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2024



+998945668868



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)



## AHMAD DONISH VA VOZEH IJODIDA SAYOHATNOMA JANRI

**Yunuszoda Zulfiya Yunusovna**

**f.f.n., dotsent. Samarqand davlat universiteti**

**email: [yunuszodaz@mail.ru](mailto:yunuszodaz@mail.ru)**

**ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0009-7638-522X>**

**Annotatsiya.** Maqolada sayohatnoma janrining ma'rifatparvar adabiyotida yangilanish jarayoni, birlamchi mavqega ega bo'lishi, davrning asosiy janriga aylanishiga omil bo'lgan sabablari ko'rsatilgan. Ma'rifatparvar adabiyotida safarnoma janrining peshqadam taraqqiyarvar g'oyalarni tarannum etuvchi ko'plab namunalarini uchratish mumkin. Ahmad Donish va Vozeh ijodida sayohatnoma janrining o'rni, adiblarning ma'rifatparvarlik pozitsiyasidan kelib chiqib, davrning ijtimoiy illatlarini tanqid qiluvchi janrga aylanish jarayoni tahlilga tortilgan. Ahmad Donish sayohatnomalari mazmun va g'oyaviy mundarija hamda tuzilishi va bayon uslubi jihatidan muhokama etiladi. Vozeh ijodida sayohatnomaning yangilanishi an'anaviy safarnoma bilan sintezlashgan shaklda amalga oshgani ko'rsatilgan. Ikkala asar tuzilish va g'oyaviy mundarija jihatidan qiyosiy tarzda muqoyisa va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** janr, voqeiy sayohatnoma, badiiy sayohatnoma, tadrijiy takomil, shakllanish omillari, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, mazmun va shakl o'zgarishlari, an'anaviylik va yangilik, realizm.

## ЖАНР ПУТЕШЕСТВИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АХМАДА ДОНИША И ВОЗЕХА

**Аннотатсия.** В статье показан протесесс обновления жанра путевых заметок в просветительской литературе, его первичной положение и причины, по которым он стал основным жанром периода. В литературе просветительстве можно встретить немало примеров жанра путешествия, прославляющих ведущий прогрессивные идеи. Анализируется роль жанра путешествия в творчестве Ахмеда Дониша и Возеха, протесесс превращения его в жанр, критикующий социальный беды времени, исходя из просветительской позитивии литераторов. Путевых заметок Ахмеда Дониша обсуждаются с точки зрения содержания и идеологического наполнения, а также структуры и стиля повествования. В творчестве Возеха показано, что обновление жанр путешествия происходило в форме синтеза с традиционным жанром путешествий. Оба произведения сравниваются и анализируются с точки зрения структуры и идеологического содержания.

**Ключевые слова:** жанр, реальное путешествие, художественное путешествие, эволюционное развитие, факторы развития и формирования, просветительство, национальное



самосознанийе, изменениийе форми и содержания, традитсионнойе и новаторство, реализм.

### GENRE OF TRAVEL IN THE WORK OF AHMAD DONISH AND VOZEH

**Abstract.** The article shows the process of updating the genre of travel writing in educational literature, its primary position and the reasons why it became the main genre of the period. In educational literature one can find many examples of the travel genre, glorifying leading progressive ideas. The role of the travel genre in the works of Ahmed Donish and Vozekh, the process of turning it into a genre that criticizes the social ills of the time, based on the educational position of the writers, is analyzed. Ahmed Donish's travelogues are discussed in terms of content and ideological content, as well as the structure and style of the narrative. Vozekh's work shows that the renewal of the travel genre took place in the form of a synthesis with the traditional travel genre. Both works are compared and analyzed in terms of structure and ideological content.

**Keywords:** genre, travelling event, artistic travelling, gradual perfection, factors to development, enlightenment, national revive, meaning and shape's change, traditional and renev, realism.

### KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida shakllanish davrini boshlagan ma'rifatparvar adabiyoti o'zining mazmun-mohiyati bilan ilm-ma'rifatga intilish, vatanparvarlik va milliy ozodlik g'oyalariga safarbar qilingan edi. Bu ijtimoiy jarayon Buxoro adabiy muhitida Ahmad Maxdum Donishning taraqqiyatparvar g'oyalaridan boshlangan bo'lib, uning maslakdosh va izdoshlari tomonidan izchil davom ettirildi. Badiiy adabiyotga yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarning kirib kelishi ilg'or fikrlovchi adiblar ijodida estetik ideal va adabiy qarashlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu yangilanish natijasida milliy adabiyot mazmun jihatidan hayotiy fikrlar va ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan boyigan bo'lsa, an'anaviy shakllar o'rnini zamon haqiqatini o'zida aks ettira oladigan yangi janrlarni maydonga keltirdi, eski janrlarni yangiladi, badiiy asarlarning tili soddalashdi, uslubi xalqona xususiyat kasb etdi. Voqelik va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'rifatparvarlik adabiyoti ayni davrda realistik mazmunga ega bo'ldi. Binobarin, asarlarning mazmun va mundarijasidagi o'zgarishlar an'anaviy janrlar doirasidan chiqib, yangi ifoda shakllari va adabiy janrlarga ehtiyoj ortdi.

Safarnoma yoxud sayohatnama janri fors-tojik mumtoz adabiyotida o'z tarixiy an'analariga ega. Biroq bu janr zamon talabiga ko'ra ma'rifatparvar adabiyoti taqozo etganidek evrilishga yuz tutdi. Yangi davrda ijtimoiy-madaniy mazmun va g'oyalarni o'zida mujassam etish bilan birga mavzuning boyishi, o'ziga xos xususiyatlar kasb etishi hisobiga yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarildi. Safarnoma mazkur davr ma'rifatparvar adabiyotining



maxsus janrlari sifatida qaror topib, ma'rifatparvarlik g'oyalalarini keng ifoda qiladigan "adabiy maydon"ga aylandi.

Sayohatnoma janrining yangilanish jarayoni quyidagi omillar asosida yuz berdi:

XIX asrning ikkinchi yarmidagi yangicha tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitni aks ettirish munosabati bilan yangi tipdagi adabiyot-ma'rifatparvar adabiyotining vujudga kelishi;

davr ijtimoiy voqeligi ta'sirida adabiyotning mazmun-mohiyati va yangi ifoda shakllarining yuzaga chiqishi;

yangi zamon va hayot talablariga muvofiq ravishda bu davrda ijod etgan adiblarning dunyoqarashi, adabiy – estetik didining shakllanganligi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI

Ma'rifatparvar adabiyotida safarnoma janrining peshqadam taraqqiyparvar g'oyalarni tarannum etuvchi ko'plab namunalarini uchratish mumkin. Bular Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asari tarkibidagi voqeiy va badiiy sayohat xotiralari, shuningdek, Vozehning "Savoneh ul-masolik va farosix ul-mamolik" asari, Mirzo Sirojning "Buxoro ahliga tuhfa" publitsistik sayohatnomasi, Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi qissasi", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sayohat xotiralari", Siddiqiy Ajziyning "Mir'oti ibrat" xayoliy sayohatnomasi va boshqalar bo'lib, mazkur janrning ma'rifatparvar adabiyotida yuqori mavqega ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Sayohatnoma janri umuman jahon xalqlari milliy uyg'onish davri adabiyotida muhim mavqega ega bo'lib, ma'rifatparvarlik davri adabiyotining asosiy janri sifatida mashhurdir. Xorijiy Sharq ma'rifatparvarlik adabiyotida, jumladan Eron adiblari Zaynulobiddin Marog'aiy, Abdurahim Tolibov, Mirzo Abutolibxon Isfahoni ijodida, turk yozuvchisi Ahmad Midhat, afg'on adibi Mahmudi Tarziy asarlari hamda Evropa ma'rifatparvarlik adabiyoti namoyandalari J. Swift, L. Stern, Sh. Monteskyo, Dyupatiy, A.N. Radishev, N.M. Karamzin, N.I.Grech, V.P.Botkin kabilarning xayoliy va voqeiy sayohatnomalari ma'lum va mashhurdir. N.M. Maslova sayohatnomalar tadqiqi asosida ta'kidlaydiki, "Sayohatnoma janri XVIII-XX asrlarda boshqa publitsistik janrlar kabi ijtimoiy fikrlar ifodasi uchun davrning o'tkir quroli sifatida xizmat qildi" [5,32].

Eron, Afg'oniston va Markaziy Osiyodagi mushtarak tarixiy sharoit-mustamlakachilik tartiboti, iqtisodiy va madaniy tushkunlikka qarshi taraqqiyparvar ma'rifatparvar adabiyotining paydo bo'lishi bu davr adiblarining maqsad va g'oyaviy yo'nalishlaridagi mushtaraklikni yuzaga keltirdi.

O'zbek ma'rifatparvar adabiyotida safarnoma yoxud sayohatnoma janri namunalarini Muqimiyl, Furqat, Zavqiy va Tajalliy ijodida ko'rish mumkin. Tilga olingan shoirlar o'zbek adabiyotining ko'p asrlik sayohatnomanavislik an'anasi davom ettirib, uni g'oyaviy mazmun va janriy xususiyatlar nuqtai



nazaridan takomillashtirdilar. Sayohatnama janrining yangilanishida, xususan, Muqimiy sayohatnomalarining o'rni ahamiyatlidir. Shoирning bu asarlari xalqning og'ir hayotini aks ettirish, jamiyatdagi kamchilik va illatlarni tanqid qilish jihatidan muhim mavqega ega. Muqimiy sayohatnomalari murabba' shaklida yozilgan bo'lib, yurt ichidagi safar turiga mansubdir.

Ma'rifatparvar adabiyoti asoschisi Ahmad Donish o'zining ma'rifiy fikrlarini ifoda etish uchun safarnoma janridan ustalik bilan foydalandi. Ahmad Donish uch marotaba (1857, 1869-1870, 1874 yillarda) Rusiyaga safar qilib, o'zining sayohat taassurotlarini safar hikoyatlari shaklida qalamga oldi. Bu hikoyatlar "Navodir ul-vaqoe" kitobining ettinchi va sakkizinch boblarini tashkil etib, "Dar hikoyati Abulqosimbi va safari Rusiya" va "Dar saforati Abdulqodirbek va bayoni ajoiboti bazm va jashni Rusiya" nomlari bilan mashhur.

Tojik adabiyotshunosligida donishshunos olim Rasul Hodizoda ilk marotaba o'zining "Nasri badei Ahmadi Donish" nomli yirik ilmiy maqolasida Donishning mazkur hikoyatlarini mavzu, g'oyaviy mundarija, badiiylik va janriy unsurlar, ijodiy maqsad nuqtai nazaridan tadqiq etib, ularni avtobiografik hikoyatlar janriga mansub deb topadi [9,71]. Donishning Peterburg sayohati tasviriga bag'ishlangan hikoyatlarning tarjimai hol yoxud avtobiografiya janriga nisbat berilishi bu janr unsurlari o'rtasidagi o'xshashlik va umumiylit natijasidir. Bu janrlar o'rtasidagi muhim farqli xususiyatlardan biri shundaki, safarnomada faqat sayohat sarguzashtlari hamda yozuvchining safar davomidagi kechmish taassurotlari bayon etiladi. Shunga e'tiboran Ahmad Donish hikoyatlarining aynan safarnoma janriga mansubligi ma'lum bo'ladi. Muallifning sayohat tafsilotlari bayoni alohida hikoyat shaklida yozilgan bo'lib, ularning har biri mustaqil kichik sayohatnama sanaladi. Ikkala sayohatnomaning ham asosiy qahramoni Ahmad Donishning o'zi bo'lib, bevosita shohid bo'lingan narsa va hodisalar muallif tilidan naql etiladi. Bu esa sayohatnama janrining xos xususiyatlaridandir [4,58].

Ahmad Donish sayohatnomalari mazmun va g'oyaviy mundarija hamda tuzilishi va bayon uslubi jihatidan mumtoz adabiyotidagi sayohatnomalardan farq qiladi. Donish o'z safarnomalarini yaratishda statistik va xronologik faktlarni keltirish usulidan voz kechadi, zero ular muallifning ijodiy maqsadi yo'lida ahamiyatsizdir [12,65]. Donish safarnomasining bu xususiyati R. Hodizoda tomonidan ham qayd etiladi: "Ahmad Donish o'z hikoyatlarida voqelikni safar qaydlari, kunlarning muayyan tartibi, tarixiy sanalar asosida bayon etmaydi. Zero Donishning bu safar tasviridan maqsadi faqat safar xotiralarini bayon etishgina emas. Yozuvchi bu xotiralarni naql qilish vositasida Buxoroning o'sha davr o'quvchilari ko'z o'ngida boshqa bir dunyonи gavdalantirishni istar edi" [9,72]. Ya'ni Donishning safarnoma yozishdan asosiy maqsadi Buxoro xalqining ko'ziga ilm-ma'rifat va texnik taraqqiyot



jihatidan yuqori pog'onaga ko'tarilgan yangi olamni gavdalantirish va shu yo'l bilan o'z yurtidagi qoloqlik sabablarini tushuntirish edi.

### NATIJALAR

Ahmad Donish ijodida safarnomaning yangi tipi vujudga keldi. Unda realistik tasvir uslubi ustunlik qilib, rus tamaddunidagi ijtimoiy hayot kichik bo'laklari bilan mufassal va realistik tarzda qalamga olinadi. Yozuvchi safarnomalarida realizm asosiy tasvir usuli sifatida ustuvor ijodiy tamoyilga aylangan bo'lib, taraqqiyatparvarlikning maqsad-mohiyatini aks ettiruvchi, ilg'or fikrlilikning orzu-umidlarini ifoda etuvchi vosita bo'ldi [11, 32]. Voqelikni hayratlanarli tarzda ko'ra olish va bayon etish, zamon illatlarining ayovsiz tanqidi, o'tkir publisistik ruh Ahmad Donishning realistik tasvir uslubiga xosdir. Ahmad Donish hayot haqiqatlarini sinchkovlik bilan ko'ra oladigan va bayon etadigan yozuvchi sifatida o'z safarnomalari va umuman tojik ma'rifatparvarlik adabiyotida yangi ijodiy metod sifatida realistik tasvirning shakllanishi uchun mustahkam zamin hozirladi.

Donish sayohatnomasida maxsus mavqega ega bo'lgan muhim masala yuksak madaniyatni tavsif va targ'ib etish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, kasbhunarni rivojlantirishdir. Bu masala butun Sharq ma'rifatparvarlik adabiyotidagi safarnomalarning mazmun - mundarijasini qamrab olgan. Ahmad Donish ham bu masalaga katta e'tibor qaratib, mamlakat obodligi va xalq farovonligining yagona yo'li dunyoviy ilm va bilimlarni o'zlashtirish deb bilib, Buxoro amirligida bu sohani, ta'limni rivojlantirish fikri, g'oyasini ilgari suradi.

Yozuvchi Rusyaning siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti haqida hikoya qilar ekan, buning zimnida o'z vatanidagi hayotning turli jabhalarini qiyoslaydi. Bu esa Donish safarnomasining asosiy xususiyatlaridan biridir. Yozuvchi qiyoslash va qarshilantirish yo'li bilan o'z vatandoshlariga yurtdagi kamchilik va illatlarni fosh etish orqali amirlikdagi boshqaruv tizimini o'tkir tanqid ostiga olishga muvaffaq bo'ladi. Bunday qiyosiy tasvir usuli, garchand butun asar davomida oshkora aytilmagan bo'lsa-da, yozuvchi safarnomasining qimmati va ahamiyatini yuksaltirib, uni yangi ma'rifatparvarlik safarnomasi sifatida gavdalantiradi.

"Navodir ul-vaqoe" da yozuvchining Rusiyaga safari tafsilotlari bayonidan tashqari safarnoma janriga mansub bo'lgan yana ikkita sarguzasht hikoyat mavjud. Bu hikoyatlar "Navodir ul-vaqoe" ning oltinchi va to'qqizinchi boblarini tashkil qilgan bo'lib, "Dar hikoyati hojiy va manofei safar va xislati zanon" hamda "Dar hikoyati girdobi Iskandar va g'inoi mardi ajamiy" deb nomlangan.

Rasul Hodizoda mazkur hikoyatlarning mavzu, g'oyaviy mundarija va badiiy xususiyatlariga doir e'tiborli mulohazalar bildirib, ularni falsafiy-badiiy qissa janriga mansub deb topadi [9,61]. Darhaqiqat, tilga olingan hikoyatlarda "qazovu qadar", "lutfi ezidi taolo", "odobi mulkdory", "manofei safar" kabi



falsafiy masalalar tahlil etiladi. Ahmad Donish bu hikoyatlarda “favodi safar” (“safar foydalari”) mavzusiga murojaat etib, inson dunyoqarashining kengayishida uning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi, hamda hikoyatni boshlashdan oldin Payg’ambar (a.s) ning sayohatni targ’ib etuvchi hadislaridan dalil keltiradi.

Ahmad Donish “Mardi ajami va hoji” haqidagi hikoyatlarida o’zining ijtimoiy-siyosiy g’oyalarini ifoda etish uchun muayyan syujet yaratib, uni badiiy suratda sayyoh hoji va jahongashta ajamlikning sarguzashtlari qissasi shaklida ado etadi. Natijada, hikoyatlar sarguzasht xususiyatini kasb etgan. Shunga ko’ra, tadqiqotchi M. Adashev bu hikoyatlarni “badiiy sarguzasht hikoyat” janrga mansub deb biladi [1,88]. Darhaqiqat, hikoyatlarda tasvirlangan voqeа-hodisalar yozuvchining ijod mahsuli bo’lgan qahramonlarning sarguzashtidir. Biroq shuni ham nazarda tutish lozimki, qahramonlarning sarguzashti sayru sayohat asosida ro’y beradi. Chunonchi hoji sarguzashti haj safari davomida hamda ajamlik kishining sarguzashti daryo bo’ylab sayohat tarzida tasvirlanadi. Shunga ko’ra mazkur hikoyatlarning janrini safarnoma deb nomlash ma’qul ko’rinadi, zero safar asosidagi voqealar, safar sarguzashtlari safarnoma janrida o’z aksini topadi [10,112]. Asarning “manofei safar” deb nomlanishi hamda muallifning sayohatni targ’ib etuvchi mulohazalari ham bu fikrimizni tasdiqlaydi.

### MUHOKAMA

Bizningcha, bu sayohatnomalar va Donishning oldingi ikki sayohatnomasi o’rtasida tafovut ko’zga tashlanadi. Ular o’rtasidagi asosiy farq shundaki, oldingi sayohatnomalarning qahramoni yozuvchining o’zidir. Bularda esa asosiy qahramon boshqa shaxslar, ya’ni sayyoh hoji va ajamlik jahongashta kishidir. Ahmad Donishning Peterburgga qilgan sayohatiga bag’ishlangan safarnomalarida voqeан sodir bo’lgan safar taassuroti tasvirlangan bo’lsa, hoji va ajamlik kishi sayohatnomasida qahramonlarning G’arb mamlakatlari sayohati taassurotlari aks etgan. Ya’ni Ahmad Donish sayohatnomalarida safar tasvirining ikki xil usuli ko’zga tashlanadi: bevosita muallif safari tasviri, buni voqeiy safarnoma deb atash mumkin hamda qahramonlar sayohati tasviri, buni biz badiiy sayohatnomasi deb nomladik. Chunki bu safarnomalarda badiiy xayolot vositasida o’zi yaratgan timsollar-sayyoh hoji va ajamlik kishi vositasida ifoda etgan. Yozuvchi bu obrazlar vositasida yuksak ma’rifatparvarlik g’oyalari va hatto o’zining voqeiy safarnomalarda bayon eta olmagan ijtimoiy-siyosiy qarashlarini oshkora ifoda eta olgan.

Mazkur sayohatnomasi o’zining Buxoro amirligi siyosatiga nisbatan tanqidiy mazmuni va o’tkir publisistik ruhi bilan Donishning Rusiya safari haqidagi voqeiy safarnomasidan afzalliklarga ega. U ushbu safarnomasida Buxorodagi ijtimoiy illatlarni bartaraf etish yo’llarini izlar ekan, buning uchun



amirlik taxtini ag'darish kerak deb hisoblaydi. Yozuvchi o'zining bunday yangi g'oya, jasoratlari aqidasini o'zi yaratgan farang hokimi timsoli tilidan shunday ifodalaydi: "Jahondori qadimu quddus moro istitoat baxshida, to bog'i jahonro az bog'bononi nodon xoly gardonem va zamin az xasu xoshoki moneai zar' pok kunem" [2,154] (Azaliy pok rabbi jahon bog'ini nodon bog'bonlardan bo'shatish va erni ekinga xalaqit beruvchi xashakdan tozalash uchun bizga qudrat bergen). Shu tariqa, Ahmad Donish zulmu sitamga asoslangan mang'it hukmdorlarini bartaraf etishni vojib deb biladi. Feodal Buxoro va diniy taassub sharoitida Ahmad Donishning bu fikri katta jasorat va isyonkor ruhga ega edi.

Guvoх bo'lгanimizdek, badiiy sayohatnomada Donishning mazkur peshqadam ma'rifatparvarlik g'oyalari uning voqeiy safarnomalariga nisbat kengroq va batafsil tasvirlangan bo'lib, buning barobarida Buxoroning iqtisodiy - ma'naviy qoloqligi tanqidi hamda yozuvchining isyonkor fikrlari keskin va aniq mo'ljal bilan aks etgan. Badiiy safarnoma janri Ahmad Donish ijodida jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalari tahqiqi uchun xizmat qilgan. U o'zining Buxoro amirligiga nisbatan isyonkor munosabatini safarnomaning aynan shu ko'rinishida mohirona adabiy usulda, oshkora tarzda qalamga oladi. Bunday oshkora va keskin fikrlar safarnomaning mazmun-mundarijasini qamrab olgan bo'lib, uni Ahmad Donishning o'tkir ijtimoiy-siyosiy g'oyalari ifodalangan janrga aylantirdi.

Ahmad Donishdan so'ng ma'rifatparvarlik davri adabiyotida safarnoma janrida asar ijod etgan ikkinchi adib - Qoriy Rahmatulloh Vozeh (1894 yilda vafot etgan) dir. Uning safarnomasi "Savoneh ul-masolik va farosix ul-mamolik" (1887) nomi bilan shuhrat qozongan. Bu asar va uning muallifi haqida T. Ne'matzodanining nomzodlik dissertatsiyasi hamda R. Hodizodanining tadqiqotlari mavjud [6;8], ikkala tadqiqotchi ham Vozehni yorqin ma'rifatparvar adib, uning "Savoneh ul-masolik va farosix ul-mamolik» «Yo'llarning qulayliklari va mamlakatlarning masofalari» asarini ma'rifatparvarlik adabiyoti namunasi sifatida tavsif va tahlil etadi, biroq ikkala olim ham asarning janrini tilga olmaydi.

Agar Ahmad Donish o'z safarnomalarini yaratishda fors - tojik mumtoz adabiyotining mazkur qadimiy janrini mazmun va g'oya, ma'rifatparvarlikning yangi sifat va mohiyati assosida yangilagan, uni taraqqiyatparvarlik maqsad-muddaosining ifoda vositasiga aylantirgan bo'lsa, Vozeh o'z asari bilan yangi adabiyotda bu janr an'anasi mavqeini yuksaltirdi. Shubhasiz, Vozeh Ahmad Donishning ma'rifatparvar aqidalaridan xabardor edi, o'z safarnomasini undan ta'sirlangan, izdoshlik qilgan holda yaratdi.

Bu davrda Ahmad Donish ijodida yuzaga kelgan yangi ma'rifatparvarlik sayohatnomasi Vozeh ijodida an'anaviy sayohatnomasi bilan uyg'unlashgan holda yuz ko'rsatdi. Vozeh an'anaviy safarnomaning shakliy doirasida, haj safari taassurotlarini qalamga olib, buning zaminida musulmon Sharqiy



davlatlari hayotidagi oddiy, muqarrar hamda g'aroyib narsalar qatorida yangi hayot nishonalari, madaniy va ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ham ilg'adi, tasvir etdi. Bu hol uning safarnomasiga zamonaviy ruh baxsh etib, Ahmad Donish va boshqa ma'rifatparvar yozuvchilarining sayohatnomalariga yaqinlashtirdi.

Vozehning ma'rifatparvar g'oyalarni bayon etish usuli Ahmad Donish va boshqa ma'rifatparvar adiblar sayohatnomalaridagi uslubdan farq qiladi. Bu uslub safar mushohadalarining xolis va betaraf bayonidan, yurt va xalqlar hayot tarzining ob'ektiv tasviri, mushohada etilgan narsa va hodisalar mohiyatini o'z tilida bayon etish, fakt va raqamlar keltirishdan iborat. Ahmad Donish asarida bo'lganidek muallifning narsa va hodisalarga sub'ektiv munosabati, ularning muayyan mafkura nuqtai nazaridan sharh va izohi, fakt va hodisalarning tahlil va tadqiqi Vozeh safarnomasiga xos emas. Vozeh ko'rgan va qalamga olgan narsa-hodisalarga nisbatan, xoh ular ilg'or va yangi bo'lsin, xoh eski va qoloq bo'lsin, ijobiy yoxud salbiy nuqtai nazarini oshkora izhor etmaydi, ularga baho bermaydi. Uning tasvir uslubi o'zi ko'rgan shahar va qishloqlardagi xalq hayoti haqiqatini xolis qalamga olishdan iborat. Bu borada yozuvchi asar muqaddimasida nozik ishora bilan safar davomida ko'rgan har bir shahar va qishloq, ulardagи ajoyib va g'aroyib hodisalarni "mazhabiy takalluf va tasanno" hamda milliy taassub va tasalluflardan qat'i nazar" [3,4] faqat ularning voqeiy haqiqati e'tiboridan qalamga olishni istaganligini ta'kidlaydi.

Bu asarda odatda ma'rifatparvarlik sayohatnomalarida mavjud bo'ladigan his-hayajon, hayrat va taajjub hamda publitsistik uslubga xos dardu iztirob ko'zga tashlanmaydi. Vozeh asarida muallifning ob'ektiv ma'rifatparvarlik munosabati ba'zi shaharlarda ko'rgan bir qator ilg'or va namunaviy narsa-hodisalarda o'z ifodasini topgan.

Bu asardagi betaraflik va safar hujjalaring ob'ektivligi jumladan Nosir Xusrav sayohatnomasini yodga soladi. Biroq uning safarnomasi bir tomondan oldingi davr safarnomalari an'anasing davomi bo'lsa, ikkinchi tomandan, zamon talablariga mos holda ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, Vozeh sayohatnomasida ham ma'rifatparvarlik davrinig boshqa safarnomalari kabi mazkur janrning yangilanishi amalga oshgan. Biroq bu yangilanish, guvoh bo'lganimizdek, janr an'anasi zimnida va unga bog'liq bo'lgan holda bo'y ko'rsatdi.

Vozeh o'z sayohatnomasida voqe'go'y (realist) yozuvchi sifatida ish tutgan. Uning voqe'go'yligi narsa va hodisalarni aynan, o'zgarishsiz hujjal tarzda qalamga olishda ko'rindi. Ularning tahlil va mohiyatini aniqlashni muallif o'z burchi deb bilmaydi. Uning asari bayon xususiyatiga ega bo'lib, faqat ma'lumot berish, hujjal keltirish, voqeabayonlikka asoslanadi. Tasvirlanayotgan voqeab-yodisalar tahlilini esa muallif o'quvchi ixtiyoriga topshiradi. Vozeh safarnomasida tasvir ob'ekti bo'lgan shahar va qishloqlar



hayotini o'z vatanidagi voqelik bilan qiyos etmasa-da, vatandosh o'quvchilariga bunday qiyoslash uchun imkon yaratadi.

Vozeh sayohatnomasida yozuvchining ma'rifatparvarlikka yo'naltirilgan siyosiy nazariyasi ham o'z ifodasini topgan. Yozuvchi hamsuhbati (karbalolik kishi) tilidan o'sha davr boshqaruv tizimi masalasiga oid o'z mulohazalarini bayon etib, Evropa mamlakatlarida din davlatdan ajratilganligini ta'kidlaydi. Vozeh karbalolik kishining nutqi vositasida davlat boshqaruvida hukmdorning qonun va konstitutsiyaga amal qilishi, Ahmad Donishga zimdan ergashgan holda Buxoro amirligida "nizom va zakun" ning joriy qilinishini istaydi.

Vozeh sayohatnomasida yozuvchining muayyan taraqqiyparvar siyosiy fikrlari tizimi o'ziga xos uslubda bayon etilgan. Bu fakt va hujjatlar tili bilan safar davomidagi ibratli narsa-hodisalarni qalamga olish vositasida ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalarini talqin etish uslubidir.

Sayohatnomada sodda va tushunarli tilda yozilgan bo'lib, yozuvchi har xil munosabat bilan texnika va uning ashyolari, Evropa madaniyati va turmushiga xos narsalar haqida so'z borganda, ruscha-internatsional so'zu istilohlardan foydalanadi.

Vozehning "Savoneh ul-masolik" asarida Ahmad Donishning voqeiy va badiiy sayohatnomariga qaraganda ilg'or ma'rifatparvar aqidalar ozroq bo'lsada, undan keyingi tojik ma'rifatparvar adabiyoti, fikriy uyg'oqlik va xalqning ma'rifatparvar tafakkuri shakllanishida muhim rol o'ynadi.

### XULOSA

Xullas, mumtoz sayohatnomalar yangi davrda ma'rifatparvar adabiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishi munosabati bilan yangilandi va uning asosiy janrlaridan biriga aylandi. Janrning bunday yangilanishi zamon va hayot talablariga muvofiq, ma'rifatparvar adabiyotining taqozosiga ko'ra yuz berdi, zamonga hamqadam, ilg'or hurfikr g'oyalarini ifodalovchi janrga aylandi. Ahmad Donish sayohatnomalari fors-tojik mumtoz adabiyoti an'analarini yangiladi, uni yangicha hayotiy mazmun va g'oyalar bilan boyitib, taraqqiyparvarlik maqsadu maromini, ma'rifatparvarlik orzu-umidlarini ifoda etuvchi janrga aylantirdi. Bu ijodkorning sayohatnomalarida safar tasvirining ikki xil tarzi - muallifning voqeiy safari hamda qahramonlarning sayohati ko'zga tashlanadi. Vozeh ijodida sayohatnomaning yangilanishi an'anaviy safarnoma bilan sintezlashgan shaklda amalga oshdi. Vozeh an'anaviy sayohatnoma doirasida haj safari taassurotlarini qalamga olish asosida yangicha hayot nishonalariga, madaniy va ilmiy-texnikaviy yangiliklarga e'tibor qaratdi. Uning sayohatnomasi zamon ruhi talabiga ko'ra yozilgan bo'lib, davrning ilg'or mafkurasini aks ettiradi. Vozeh sayohatnoma yaratish bilan ma'rifatparvar adabiyotida bu janr mavqeini oshirdi, uni ustuvor adabiy janrga aylantirdi.

**ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Adashev M. Chand mulohiza doir ba tanosubi shaklu mazmun dar adabiyoti maorifparvarii tojik. Mas'alahoi filologiyai tojik. Maqola va guzorishoti ilmy. – Samarqand: SamDU, 1997. – B. 83-100
2. Ahmadi Donish. Navodir ul-vaqoe'. – Dushanbe: Donish, 1988. - 283 b.
3. Vozeh Qory Rahmatulloh. Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik. Dastnavisi raqami 2106. ISh va AF O'zbekiston. -153 b.
4. Zulfiya Y. Evolutional development of the genre of travel notes //European research. – 2016. – №. 10 (21). – C. 55-58.
5. Maslova N.M. Putevoe zapiski kak publitsisticheskaya forma (stanovlenie i razvitie janra "puteshestviya" v publitsistike).– Moskva: MGU, 1977. -115 b.
6. Ne'matzoda T. Dar borai Vozeh va asari o' "Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik". – Stalinobod: Nashr. Davl. Tojik., 1957.– 48 b.; Ne'matzoda T. Vozeh. –Deshanbe: Irfon, 1965. –230 b.
7. Sa'diev S. Janri safarnoma dar adabiyoti maorifparvarii tojik. Mas'alahoi filologiyai tojik. Maqola va guzorishoti ilmy. – Samarqand: SamDU, 1997. – B. 32-41.
8. Hodizoda R. Adabiyoti tojik dar nimai duvvumi asri XIX. –Dushanbe: Donish, 1968. –294 b.
9. Hodizoda R. Nasri badeii Ahmadi Donish. Az guzashta va hozirai adabiyoti tojik. Majmo'ai maqolaho. – Dushanbe: Irfon, 1974. – B. 60-81.
10. Yunuszoda Z.Yu. Istoriya poyavleniya i formirovaniya janra puteshestviya v tadjikskoy literature //BBK 1 E91. – 2019. – S. 112.
11. Yunuszoda Z.Yu. Obraz puteshestvennika v rasskaze Ahmada Donisha //Fundamentalnie osnovi innovasionnova razvitiya nauki. – 2019. – S. 33.
12. Yunusovna Y. Z. The image of a traveller in Ahmad Donish's story //European science review. – 2020. – №. 3-4. – C. 64-68.